“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AKRAMOV MASHRAB ERGASHALI O‘G‘LI

OPTIK TOLALI TARMOQLARDA SOLITONLARNI GENERATSIYA QILISH VA BOSHQARILADIGAN DINAMIKASINI MODELLASHTIRISH

01.04.02 – Nazariy fizika
05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

УДК: 530.182.1, 519.635.2

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences

“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AKRAMOV MASHRAB ERGASHALI O‘G‘LI

OPTIK TOLALI TARMOQLARDA SOLITONLARNI GENERATSIYA QILISH VA BOSHQARILADIGAN DINAMIKASINI MODELLASHTIRISH

01.04.02 – Nazariy fizika
05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM860 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (xulosa)) Ilmiy kengashning internet sahifasida (www.ifar.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Matrasulov Davron Urinovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ganjaboy Boltayev** fizika-matematika fanlari doktori **Boris Malomed** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzurida Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «1» iyul soat 16^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; Tel.: +99871 237-09-61.; e-mail: info@ifar.uz).

Dissertatsiya bilan “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; tel.: +99871 237-09-61.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “____”____________kuni tarqatildi.
(2023-yil «17» iyundagi 8 raqamli reestr bayonnomasi.)

B.J. Ahmedov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

E.X. Karimbayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

B.M. Narzilloyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati. Kichik oʻlchamli materiallarda nochiziqli optik hodisalarni oʻrganish fundamental va amaliy nuqtayi nazardan muhim vazifadir. Muammoning asosiy jihati shundaki, bunday tizimlarda oʻlchamlarni kamaytirish va fazoviy chegaralanish nochiziqli optik toʻlqinlarning harakatiga sezilarli cheklovlar qoʻyadi, bu baʻzan yangi effektlarning paydo boʻlishiga olib keladi. Amaliy nuqtayi nazardan tarmoqlarning topologiyasi, shuningdek, chegaralar geometriyasi toʻlqinlar va zarrachalarning harakatlarini boshqarish uchun samarali vositaga aylanishi mumkin, bu oldindan belgilangan xususiyatlarga ega funksional materiallar va optoelektron qurilmalarni modellashtirish hamda loyihalash muammosini hal qilishga imkon beradi. Ushbu dissertatsiya ishida solitonlar, jumladan, PT-simmetrik solitonlar, shuningdek, funksional xossalari yaxshilangan optoelektron materiallarni modellashtirish muammosi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan bir qator masalalar yechilgan.

Hozirgi kunda jahonda nochiziqli toʻlqin tenglamalari orqali ifodalangan toʻlqinlarning xossalarini aniqlash va ularning sonli yechish usullarini tadqiq qilish koʻplab fizik hodisalarning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda sodda graflarda nochiziqli Shredinger tenglamasi tipidagi tenglamalarni yechish va soliton transportini modellashtirish optika, nanofizika va nazariy fizika masalalarini yechishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli graflarda nochiziqli toʻlqin tenglamalarining soliton yechimlarini topish va soliton dinamikasini modellashtirish hamda axborotni samarali uzatish jarayonlarini matematik modellashtirish, samarali sonli hisoblash algoritmlari va dasturlarini yaratish maqsadli tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega boʻlgan nazariy fizika va amaliy matematikaning dolzarb yoʻnalishlariga eʻtibor kuchaytirildi. Jumladan, kvant fizikasi, kondensirlangan muhitlar fizikasi va polimerlar fizikasi masalalarini modellashtirish va hisoblash matematikasi usullaridan foydalangan holda nazariy tadqiqotlar olib borish hamda amaliy ishlanmalarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tarmoqlangan tuzilmalarda nochiziqli tenglamalarning soliton yechimini topish, soliton transportini matematik modellashtirish muammolarini tadqiq qilish va dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarni yechishda salmoqli natijalarga erishildi. Elektronika, nanomateriallar fizikasi va amaliy matematika fanlarining ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yoʻnalishlari etib belgilandi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda differensial tenglamalarni graflarda yechish nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagi PQ-916-son «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi 292-sonli qarori

rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori va 2017-yil 8-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Graflarda evolutsion tenglamalar yordamida to‘lqin dinamikasini modellashtirishni o‘rganish ilk bor 1989-yil Exner va Seba ishida keltirilgan. Keyinroq esa Kostrykin va Schrader metrik graflarda Shredinger operatori uchun umumiy ko‘rinishdagi chegaraviy shartlarni qanoatlantirib, aniq matematik masalani va tarmoqlangan tizimlarda zarra va to‘lqin dinamikasining aniq matematik modelini taklif qilgan. Mazkur modelning nochiziqli umumlashmasi, ya’ni metrik graflarda nochiziqli Shredinger tenglamasi orqali ifodalanuvchi tarmoqlangan tuzilmalarda soliton dinamikasi modeli ilk bor K.Nakamura, S.Sawada, D.Matrasulov va ularning hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan. Xususan, ularning ishlarida fundamental saqlanish qonunlaridan kelib chiqib, grafning tarmoqlanish nuqtalarida umumiy chegaraviy shart olingan.

Grafning tarmoqlanish nuqtasidagi chegaraviy shartlar R.Adami, D.Noja, D.Pelinovsky kabi olimlar tomonidan olingan va bu shartlar graflarda turg‘un va yuguruvchi solitonlarni, jumladan, tarmoqlangan tuzilmalarda relativistik solitonlarni modellashtirish uchun ham qo‘llangan.

Optik tolalarda nochiziqli Shredinger tenglamasi orqali berilgan boshlang‘ich shartlar asosida generatsiya qilingan solitonlar sonini topish masalasi ilk bor 1988-yilda J.Burzlaff va 1989-yilda Y.Kivsharlarning ishlarida keltirilgan. Keyinchalik 1999-yilda N.C.Panoiu, I.V.Mel’nikov, D.Mihalache va ularning hammualliflari tomonidan simmetrik va antisimmetrik boshlang‘ich shartlar asosida generatsiya qilingan solitonlarni analitik va sonli usullardan foydalanib o‘rganilgan.

Respublikamizda nochiziqli Shredinger, Kortega de Friz, reaksion-diffuzion tenglamalarining analitik va sonli usulda olingan yechimlari va ularning xossalari F.Abdullaev, A.Abdumalikov, A.Xasanov, G.Urazbaev, M.Aripov, Z.Raxmonov, A.Matyakubov kabi olimlar tomonidan yetarli darajada o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, OT-F4-30 «Ikki marta nochiziqli kross sistemaning konvektiv ko‘chish, o‘zgaruvchan zichlik, manba yoki yutish ta’siridagi sifat xossalarini tadqiq qilish» mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi. Ushbu dissertatsiyaning maqsadi graflarda nochiziqli evolyutsion to‘lqin tenglamalari yordamida solitonlar dinamikasini modellashtirish yo‘li bilan optik tolali tarmoqlarda solitonlarning generatsiya bo‘lishi va tarqalishini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, optik to‘lqin o‘tkazgich tarmoqlarida solitonlarning boshqariladigan generatsiyasi va ularni tashish usullarini ishlab chiqish ushbu dissertatsiya ishining alohida maqsadidir.

Tadqiqot ishining vazifalari:

1) Nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun Koshi masalasini graflarda yechish;

2) Optik tolali tarmoqlarda solitonlarning tarqalish jarayonidagi nurlanishini modellashtirish;

3) Berilgan boshlang‘ich impuls profillari uchun generatsiya qilingan solitonlar sonini hisoblash;

4) Graflarda PT-simmetrik nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun Koshi masalasini yechish;

5) Berilgan boshlang‘ich impuls profillari uchun generatsiya qilingan PT-simmetrik solitonlar sonini hisoblash;

6) Diskret PT-simmetrik nochiziqli Shredinger tenglamasini graflarda yechish va ularning soliton yechimlarini topish;

7) PT-simmetrik solitonlarning graf tuguni orqali aks etishsiz o‘tish shartlarini keltirib chiqarish.

Tadqiqot ishining obyekti: Optik tolali tarmoqlarda generatsiya qilingan solitonlar, PT-simmetrik solitonlar, diskret tarmoqlangan strukturalardagi solitonlar.

Tadqiqot ishining predmeti: Optik tolali tarmoqlarda solitonlarning boshqariladigan generatsiyasi va tashilishi, tarmoqqa o‘xshash strukturalarda PT-simmetrik solitonlarning dinamikasi, diskret kichik o‘lchamli tarmoqlangan strukturalarda nolokal solitonlarning dinamikasi.

Tadqiqot ishining usullari: Nochiziqli Shredinger tenglamasi, PT-simmetrik nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasi va diskret nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining analitik hamda sonli yechish usullari.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor tarmoqqa o‘xshash strukturalarda solitonlarni generatsiya qilish muammosi yechilgan;

birinchi marta berilgan boshlang‘ich impuls profiliga ko‘ra, generatsiya qilingan solitonlar sonini hisoblash uchun analitik formula olingan;

ilk bor PT-simmetrik nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining metrik graflarda soliton yechimlari, diskret nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining diskret graflarda soliton yechimlari topilgan.

Tadqiqot ishining amaliy natijalari. Tadqiqot ishining natijalari optik tolali va to‘lqin uzatgichli tarmoqlarda solitonlarning generatsiya bo‘lishi hamda tarqalishini modellashtirish, kerakli funksional xususiyatlarga ega optik tolali tarmoqlarni yaratish, shuningdek, kichik oʻlchamli tarmoqlangan tuzilishga ega ferromagnit materiallarni modellashtirish va loyihalash uchun bevosita qoʻllaniladi.

Tadqiqot ishi natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shundan iboratki, generatsiya qilingan solitonlar sonini topish uchun olingan formulaning toʻgʻriligi graflarda nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining sonli yechimi bilan tasdiqlangan. Bundan tashqari nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining analitik yechimi asosida koʻrsatilgan PT-simmetrik solitonlarning graf tugunlari orqali aks etishsiz oʻtishi sonli modellashtirish orqali tasdiqlangan.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari:

1) Optik tolali tarmoqlarda generatsiya qilingan solitonlar sonini (ma’lum bir boshlangʻich impuls profili uchun) hisoblash uchun analitik formula olingan;

2) Graflardagi PT-simmetrik nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining soliton yechimlari topilgan;

3) PT-simmetrik nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining graflardagi integrallanuvchanlik xossasi, tenglamaning nochiziqlilik koeffitsiyentlari bilan ma’lum shartlar bajarilgan holda isbotlangan;

4) Integrallanuvchanlik xossasiga ega PT-simmetrik solitonlarning graf tugunlari orqali aks etishsiz oʻtishi koʻrsatilgan;

5) Graflardagi PT-simmetrik diskret nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining soliton yechimlari olingan;

6) Graflarda nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining yechimi boʻlgan PT-simmetrik solitonlar sonini (ma’lum bir boshlangʻich impuls profili uchun) hisoblash uchun analitik formula isbotlangan;

7) PT-simmetrik diskret solitonlarning graf tugunlari orqali aks etishsiz oʻtish sharti uchun analitik formula olingan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Optik tolali tarmoqlarda soliton generatsiyasi boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

optik tolali tarmoqlarda nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun generatsiya qilingan solitonlar soni xorijiy ilmiy maqolalarda (Results in Physics, Volume 31, 104889, December 2021; Optik, Volume 224, 165237, December 2020; Optik, Volume 272, 170206, February 2023; Heliyon, Volume 9, Issue 3, E14235, March 2023; Computational Mathematics and Modeling, Volume 33, pp. 375-387, July 2022; Applied Mathematics Letters, Volume 143, 108684, September 2023) berilgan boshlangʻich shartlar asosida hisoblashda foydalanilgan. Ilmiy natijaning qoʻllanilishi tarmoqlangan strukturalarda nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun boshlangʻich qiymatlar masalasini yechishga imkon bergan;

Dissertatsiya natijalari qoʻshma grant hisoblangan “Spectral Optimization: From Mathematics to Physics and Advanced Technology” (HORIZON2020, European Union Funding for Research and Innovation) kabi bir qancha xalqaro va mahalliy, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va TUBITAK

(Ref. Nr MRT-2130213155 & 221N123), O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining “Kichik o‘lchamli nanostrukturalarda boshqariladigan kvant tashish: tarmoqli kvant-funksional materiallarni modellashtirish va loyihalash” (Nr/ FZ-5821512021) ilmiy grantlar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish: Tadqiqot ishining natijalari 5 ta xalqaro konferensiyalarda, shuningdek, Ilmenau Texnika universitetining (Germaniya) matematika fakulteti va Praga Texnika universiteti (Chexiya) Doppler instituti ilmiy seminarlarida sinovdan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining chop etilganligi: Tadqiqot natijalari bo‘yicha 4 ta maqola (shulardan, 3 tasi xalqaro, Scopus va Web of Science, 1 tasi OAK tarkibiga kiruvchi jurnallarda) va 6 ta konferensiya tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Birinchi bobda muammoning hozirgi holatining tavsifi, shuningdek, nochiziqli va nolokal nochiziqli Shredinger tenglamalari uchun solitonlar generatsiyasi jarayoni to‘g‘ri chiziqda berilgan boshlang‘ich shartlar uchun keltirilgan. Xususan, berilgan simmetrik boshlang‘ich impuls uchun solitonlar generatsiyasining modellari keltirilgan.

“Optik tolali tarmoqlarda solitonlar generatsiyasini modellashtirish” deb nomlangan ikkinchi bobda metrik graflarda nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun boshlang‘ich qiymat masalasi orqali tasvirlangan optik tolalar yoki optik tolali tarmoqlarda solitonlarni generatsiya qilish muammosi ko‘rib chiqilgan. Turli xil boshlang‘ich shartlar uchun turli xil tarmoq topologiyalari asosida generatsiya qilingan solitonlar soni olingan. Optik tolalardagi impulslarning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi uchun asosiy tenglama quyidagi nochiziqli Shredinger tenglamasi hisoblanadi:

$$i\frac{\partial\psi}{\partial t}+\frac{1}{2}\frac{\partial^2\psi}{\partial x^2}+|\psi|^2\psi=0, \tag{1}$$

bu yerda $\psi -$ pulsning normallashtirilgan kompleks amplitudasi. Optik tolalarda solitonlar generatsiyasi muammosini (1) tenglama uchun Koshi masalasiga keltiriladi. Bunday masalalarni, masalan, berilgan boshlang'ich shartlar uchun teskari sochilish masalasi yordamida hal qilish mumkin. Agar $\psi(x,0)=-iq(x)$ deb olsak,

$$q(x)=\begin{cases}0, & \text{agar } |x|>\frac{1}{2}a\\ b, & \text{agar } |\mathrm{x}|\le\frac{1}{2}a\end{cases}\quad b>0. \tag{2}$$

Ushbu yondashuv bilan solitonlarni generatsiya qilish paytida to‘lqin funksiyasining evolyutsiyasini quyidagi xos qiymatlar masalasini hal qilish orqali olish mumkin.

$$Au=\lambda u, \tag{3}$$

bu yerda

$$A = \begin{pmatrix} i\dfrac{d}{dx} & \psi(x,0) \\ -\psi^*(x,0) & -i\dfrac{d}{dx} \end{pmatrix}. \tag{4}$$

Har bir diskret xos qiymat $\lambda = \xi + i\eta$ с L^2 $-$integrallanuvchi xos funksiya 2ξ tezlikda harakatlanuvchi amplitudasi 2η ga teng generatsiya qilingan solitonga mos keladi.

Ilgari generatsiya qilingan solitonlar sonini topish ifodasi quyidagi munosabat bilan berilishi ko‘rsatilgan:

$$N = \langle \frac{1}{2} + \frac{F}{\pi} \rangle, \tag{5}$$

bu yerda $F = \int_{-\infty}^{\infty} |\psi(x,0)| dx$ va $<\ldots>$ argumentdan kichik butun sonni bildiradi.

Quyidagi ifoda bilan berilgan boshlang‘ich shart uchun generatsiya qilingan solitonlar sonini topishimiz mumkin:

$$q(x) = \beta \exp(-\alpha|x|), \quad \alpha, \beta > 0. \tag{6}$$

Yulduz grafning berilgan uchta e_j tarmog’i uchun koordinatani x_j ko‘rinishida belgilaymiz. Koordinata boshini 0 tarmoqlanish nuqtasiga, birinchi tarmoq e_1 uchun $x_1 \in (-\infty, 0]$ va ikkinchi, uchinchi tarmoqlar $e_{2,3}$ uchun $x_{2,3} \in [0, +\infty)$ belgilaymiz. $\psi_j(x_j)$ uchun $\psi_j(x)$ ko‘rinishida qisqartma ishlatamiz. Bunday grafning har bir e_j tarmog‘i uchun nochiziqli Shredinger tenglamasi quyidagicha yozilishi mumkin

$$i\frac{\partial \psi_j}{\partial t} + \frac{\partial^2 \psi_j}{\partial x^2} + \beta_j |\psi_j|^2 \psi_j = 0, \tag{7}$$

bu yerda nochiziqlilik parametri β_j optik tolali tarmoqning har bir tarmog‘i uchun materialning nochiziqli sindirish ko‘rsatkichi orqali aniqlanadi. (7) tenglamani yechish uchun tarmoqlanish nuqtasiga chegaraviy shartlarni qo‘yish kerak. Bunday shartlar norma va energiyaning saqlanishi kabi asosiy saqlanuvchi qonunlardan keltirib chiqarilishi mumkin

$$\frac{dN}{dt} = 0, \qquad \frac{dE}{dt} = 0, \tag{8}$$

bu yerda

$$N(t) = \int_{-\infty}^{0} |\psi_1|^2 dx + \int_{0}^{\infty} |\psi_2|^2 dx + \int_{0}^{\infty} |\psi_3|^2 dx \tag{9}$$

va

$$E = E_1 + E_2 + E_3, \tag{10}$$

$$E_k = \int_{e_k} \left[\left| \frac{\partial \psi_k}{\partial x} \right|^2 - \frac{\beta_k}{2} |\psi_k|^4 \right] dx. \tag{11}$$

Saqlanish qonunlari (8) tugundagi quyidagi chegaraviy shartlariga olib kelishini ko‘rsatish mumkin:



1-rasm. Yulduz ko‘rinishida tarmoqlangan tolada boshlang’ich impuls profili.

$$\beta_1\psi_1(0,t) = \beta_2\psi_2(0,t) = \beta_3\psi_3(0,t), \tag{12}$$

va umumlashtirilgan Kirxgof qonuni

$$\frac{1}{\beta_1}\frac{\partial\psi_1}{\partial t}\bigg|_{x=0} = \frac{1}{\beta_2}\frac{\partial\psi_2}{\partial t}\bigg|_{x=0} + \frac{1}{\beta_3}\frac{\partial\psi_3}{\partial t}\bigg|_{x=0}, \tag{13}$$

bu yerda $\beta_j -$ nolga teng bo‘lmagan haqiqiy doimiy. (1) tenglama uchun asimptotik shartlar quyidagicha yoziladi:

$$\lim_{|x|\to+\infty}\psi_j = 0. \tag{14}$$

(12) va (13) tugundagi chegaraviy shartlarni hamda asimptotik shartni (14) qanoatlantiruvchi (1) tenglamaning bir solitonli yechimi quyidagicha yozilishi mumkin

$$\psi_j(x,t) = a\sqrt{\frac{2}{\beta_j}}\frac{\exp\left[i\frac{vx}{2} - i\left(\frac{v^2}{4} - a^2\right)t\right]}{\cosh[a(x-l-vt)]}, \tag{15}$$

bu yerda β_j parametr quyidagi yig‘indi qoidasini qanoatlantiradi:

$$\frac{1}{\beta_1} = \frac{1}{\beta_2} + \frac{1}{\beta_3}. \tag{16}$$

Bu yerda, v, l va $a -$ mos ravishda solitonning tezligini, boshlang‘ich massa markazini va amplitudasini tavsiflovchi mustaqil parametrlar. Tajribada (16) tenglamadagi yig‘indi qoidasini optik tolali tarmoqning har bir tarmog‘i uchun sindirish ko‘rsatkichini to‘g‘ri sozlash orqali qanoatlantirilishi mumkin.

$Y -$ ko‘rinishidagi tarmoqlanishga ega bo‘lgan tarmoqlangan optik tolani ko‘rib chiqamiz. Bunday sistemani 1-rasmda ko‘rsatilgan yulduz grafi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Keyin solitonlar generatsiyasi va tarmoqlanish masalasini yulduz grafida nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun Koshi masalasi orqali modellashtirish mumkin. Bu tenglama (7) bilan berilgan, buning uchun quyidagi boshlang‘ich shartni beramiz:

$$\psi_j(x,0) = -i\sqrt{\frac{2}{\beta_j}}q_j(x). \tag{17}$$

Bu tenglamani yechish uchun grafning tarmoqlanish nuqtasiga chegaraviy shartlarni qo‘yish va tarmoqlarda to‘lqin funksiyasining asimptotikasini aniqlash kerak. Ular (12), (13) va (14) tenglamalar shaklida yozilishi mumkin.

Bu yerda biz boshlang‘ich impuls profiliga ega bo‘lgan tolaning $Y-$ko‘rinishidagi tarmoq uchun solitonlarni generatsiya qilish muammosini ko‘rib chiqamiz (1-rasmga qarang)

$$q_1(x) = \begin{cases} 0, & x < -\frac{1}{2}a \\ b, & -\frac{1}{2}a \leq x \leq 0 \end{cases} \tag{18}$$

$$q_{2,3}(x) = \begin{cases} 0, & x > \frac{1}{2}a \\ b, & 0 \leq x \leq \frac{1}{2}a \end{cases} \tag{19}$$

Bunday boshlang‘ich profil uchun solitonlar har bir tarmoqdagi tarmoqlanish nuqtasi atrofida generatsiya bo‘lishi nazarda tutiladi. Teskari sochilish masalasi usulidan foydalanib, bunday profil uchun generatsiya qilingan N solitonlar sonini hisoblash mumkin:

$$N = \langle \frac{3}{2} + \frac{F}{\pi} \rangle, \tag{20}$$

bu yerda

$$F = \sum_{j=1}^{3} \int_{e_j} |\psi_j(x,0)| dx = \frac{ab}{2} \left[\sqrt{\frac{2}{\beta_1}} + \sqrt{\frac{2}{\beta_2}} + \sqrt{\frac{2}{\beta_3}} \right]. \tag{21}$$

Biz bu yerda yig‘indi qoidasi (16) bajarilgan deb faraz qilamiz, ya’ni masala integrallanuchanlik xossasiga ega. (3) va (20) tenglamalar orasidagi farq doimiy ko‘paytuvchiga bog‘liq:

$$\left(\sqrt{2\beta_1^{-1}} + \sqrt{2\beta_2^{-1}} + \sqrt{2\beta_3^{-1}} \right). \tag{22}$$

$\beta_j, (j = 1,2,3)$ parametrning turli xil tanlanishi generatsiya qilingan solitonlar sonini boshqarishga imkon beradi. Bundan tashqari soddalik uchun yuqoridagi boshlang‘ich impulslar (18) va (19) tarmoqlanish nuqtalarida berilgan hamda ularning balandligi va eni har bir tarmoq uchun bir xil. Umuman olganda, turli xil tarmoqlar uchun turli xil kenglik va balandliklarni tanlashingiz mumkin. Shuningdek, bular solitonlar soni va dinamikasini sozlash uchun qo‘shimcha vositani taqdim etadi.

$Y-$ ko‘rinishidagi tarmoqda solitonlar soni va yechimlarni aniqlash mumkin bo‘lgan yana bir boshlang‘ich impuls profilini keltiramiz:

$$\psi_j(x,0) = \sqrt{\frac{2}{\beta_j}} \operatorname{sech}\left[e^{i(\omega x + \theta/2)} + e^{i(\omega x + \theta/2)}\right], \tag{23}$$



2-rasm. Oltita tarmoqdan iborat yulduz grafi.

bu yerda 2ω va $\theta -$ chastota va mos ravishda ikkita soliton orasidagi fazalar farqi. (7), (12) va (13) tenglamalar bilan berilgan masalaning ikkita soliton yechimi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$\psi_j(x,t) = \sqrt{\frac{2}{\beta_j}}\xi\eta e^{\phi\left(\frac{t}{2}\right)} \times \frac{e^{i\xi x}\cosh[\eta(x+\xi t)+i\varphi] + e^{-i\xi x}\cosh[\eta(x-\xi t)-i\varphi]}{\xi^2\cosh\eta(x+\xi t)\cosh\eta(x-\xi t)+\eta^2\sin\xi(x+i\eta t)\sin\xi(x-i\eta t)}. \tag{24}$$

Bu yechim quyidagi shart bajarilganda o‘rinli:

$$\frac{1}{\beta_1} = \frac{1}{\beta_2} + \frac{1}{\beta_3}. \tag{25}$$

Generatsiya qilingan solitonlar soniga mos keladigan ifoda quyidagicha yozilishi mumkin:

$$F = 2\pi\left(\sqrt{\frac{2}{\beta_1}} + \sqrt{\frac{2}{\beta_2}} + \sqrt{\frac{2}{\beta_3}}\right)\operatorname{sech}\left(\frac{\pi\omega}{2}\right)\cos\left(\frac{\theta}{2}\right). \tag{26}$$

Uchinchi bobda Ablowitz-Muslimani tenglamasi deb ataladigan nolokal nochiziqli Shredinger (NNSh) tenglamasi orqali tasvirlangan graflarda $\mathcal{PT}$-simmetrik solitonlar modeli keltirilgan. To‘g‘ri chiziqdagi NNSh tenglamasi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$i\frac{\partial}{\partial t}q(x,t) = -i\frac{\partial^2}{\partial x^2}q(x,t) + iV(x,t)q(x,t), \tag{27}$$

bu yerda $V(x,t) = -2q(x,t)q^*(-x,t) -$ o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan $\mathcal{PT}$-simmetrik potensial. (27) tenglama “kuchayish va yo‘qotish” strukturasiga ega bo‘lgan optik to‘lqin o‘tkazgichda tarqaladigan $\mathcal{PT}$-simmetrik optik solitonlarni tavsiflaydi. (27) tenglamaning bir solitonli yechimini teskari sochilish masalasi yordamida olish mumkin va quyidagi ko‘rinishga ega:

$$q(x,t) = -\frac{2(\eta_1+\bar{\eta}_1)e^{i\bar{\theta}_1}e^{-4i\bar{\eta}_1^2 t}e^{-2\bar{\eta}_1 x}}{1+e^{i(\theta_1+\bar{\theta}_1)}}. \tag{28}$$

NNSh tenglamasi cheksiz ko‘p saqlanuvchi kattaliklarga ega, ular orasida norma:

$$C_0=\int_{-\infty}^{\infty} q(x,t)q^*(-x,t)\,dx, \tag{29}$$

va energiya:

$$C_2=\int_{-\infty}^{\infty}[q_x(x,t)q_x^*(-x,t)-\sigma q^2(x,t)q^{*2}(-x,t)]dx. \tag{30}$$

Bizning asosiy vazifamiz to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi boshlang‘ich impuls profili uchun solitonlar generatsiyasini modellashtirishdir:

$$q(x,0)=\begin{cases}0, & \text{agar} \quad |x|>\frac{1}{2}a \\ b, & \text{agar} \quad |x|\le\frac{1}{2}a\end{cases}, \qquad b>0.$$

Yuqoridagi yondashuvdan foydalanib, teskari sochilish masalasiga asoslanib, generatsiya qilingan solitonlar soni uchun quyidagi formulani olish mumkin:

$$F=\int_{-\infty}^{+\infty}|q(x,0)|dx=ab, \quad N=<\frac{1}{2}+\frac{ab}{\pi}>.$$

Ushbu formula $\mathcal{PT}$-simmetrik nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasi (27) orqali tasvirlangan boshlang‘ich impuls profili va generatsiya qilingan solitonlar soni o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi.

Ushbu modelni metrik graflar yordamida tarmoqlangan strukturalar holatiga umumlashtirish mumkin. Quyidagi nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasini ko‘rib chiqaylik, u yulduz grafining oltita $b_{\pm j}$ tarmoqlarining har bir tarmog‘ida yoziladi (2-rasmga qarang). Buning uchun har bir $b_{\pm j}$ tarmoq uchun $x_{\pm j}$ koordinatasi tayinlanadi. Koordinata boshini tarmoqlanish nuqtasiga joylashtiramiz, b_{-j} tarmoqlar uchun $x_{-j}\in(-\infty,0]$, b_j tarmoqlar uchun $x_j\in[0;\,+\infty)$ deb belgilaymiz:

$$i\frac{\partial}{\partial t}q_{\pm j}(x,t)=\frac{\partial^2}{\partial x^2}q_{\pm j}(x,t)+\sqrt{\beta_j\beta_{-j}}q_{\pm j}^2(x,t)q_{\mp j}^*(-x,t), \tag{31}$$

bu yerda $q_{\pm j}(x,t)$ funksiya $x\in b_{\pm j}$ va $j=1,2,3$ uchun yozilgan.

Ushbu tenglamaning juda muhim xususiyati shundaki, u nochiziqli Shredinger tenglamalari tizimi bo‘lib, unda $q_{\pm j}$ komponentlar nochiziqli holda aralashgan. Graflarda nochiziqli Shredinger tenglamasidan farqli o‘laroq, tenglama komponentlari bir-biriga tarmoqlanish nuqtasidagi chegaraviy shartlar orqali bog‘langan bo‘lsa, tenglamadagi qarama-qarshi belgilarga ega bo‘lgan komponentlar nochiziqli hadlar orqali aralashgan va boshqa komponentlar har biriga bog‘langan.

Tugundagi chegaraviy shartlar asosiy saqlanish qonunlaridan keltirib chiqarilishi mumkin. Bu yerda energiya va normaning saqlanish qonunlaridan foydalanamiz. Grafdagi NNSh tenglamasi uchun norma quyidagi ko‘rinishga ega:

$$C_0=\sum_{j}^{3}\left[\int_{b_j}q_j(x,t)q_{-j}^*(-x,t)\,dx+\int_{b_{-j}}q_{-j}(x,t)q_j^*(-x,t)\,dx\right]. \tag{32}$$



3-rasm. Quyidagi qiymatlar uchun NNSh tenglamasini sonli yechish orqali olingan metrik yulduz grafidagi soliton profili: ($\beta_{-1} = 1,\ \beta_1 = 1.15,\ \beta_{-2} = 2.19,\ \beta_2 = 1.91,\ \beta_{-3} = 2.42,\ \beta_3 = 2.09$). Boshlang‘ich shartlar b_{-1} va b_1 tarmoqlarida berilgan.

$\dot{C}_1 = 0$ normaning saqlanishidan biz quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\sum_{j=1}^{3} \mathrm{Im}\left[\frac{\partial}{\partial x} q_j(x,t) \cdot q_{-j}^*(-x,t)\right]\Bigg|_{x\to+0} = \sum_{j=1}^{3} \mathrm{Im}\left[\frac{\partial}{\partial x} q_{-j}(x,t) \cdot q_j^*(-x,t)\right]\Bigg|_{x\to-0}. \tag{33}$$

Boshqa saqlanuvchi kattalik – energiya quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$C_2=\sum_j^3\left[\begin{array}{l}\int_{b_j}\left[\partial_x q_j(x,t)\partial_x q_{-j}^*(-x,t)-\frac{\sqrt{\beta_j\beta_{-j}}}{2}q_j^2(x,t)q_{-j}^{*2}(-x,t)\right]dx\\+\int_{b_{-j}}\left[\partial_x q_{-j}(x,t)\partial_x q_j^*(-x,t)-\frac{\sqrt{\beta_j\beta_{-j}}}{2}q_{-j}^2(x,t)q_j^{*2}(-x,t)\right]dx\end{array}\right]. \quad (34)$$

$\dot{C}_2=0$ energiyaning saqlanishidan

$$\sum_{j=1}^3 \mathrm{Re}\left[\frac{\partial}{\partial x}q_j(x,t)\cdot\partial_t q_{-j}^*(-x,t)\right]\Bigg|_{x\to+0} = \sum_{j=1}^3 \mathrm{Re}\left[\frac{\partial}{\partial x}q_{-j}(x,t)\cdot\partial_t q_j^*(-x,t)\right]\Bigg|_{x\to-0}. \quad (35)$$

Ushbu ifodalar tugundagi quyidagi chegaraviy shartlarga olib keladi:

$$\alpha_1 q_1(x,t)|_{x=0}=\alpha_{-1}q_{-1}(x,t)|_{x=0}=\alpha_2 q_2(x,t)|_{x=0}=\alpha_{-2}q_{-2}(x,t)|_{x=0}=\alpha_3 q_3(x,t)|_{x=0}=\alpha_{-3}q_{-3}(x,t)|_{x=0},$$

$$\frac{1}{\alpha_1}\frac{\partial}{\partial x}q_1(x,t)|_{x=0}+\frac{1}{\alpha_2}\frac{\partial}{\partial x}q_2(x,t)|_{x=0}+\frac{1}{\alpha_3}\frac{\partial}{\partial x}q_3(x,t)|_{x=0}=\frac{1}{\alpha_{-1}}\frac{\partial}{\partial x}q_{-1}(x,t)|_{x=0}+\frac{1}{\alpha_{-2}}\frac{\partial}{\partial x}q_{-2}(x,t)|_{x=0}+\frac{1}{\alpha_{-3}}\frac{\partial}{\partial x}q_{-3}(x,t)|_{x=0}$$

Nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasining $q(x,t)$ −yechimi quyidagi ifoda bilan berilgan bo‘lsin:

$$i\frac{\partial}{\partial t}q(x,t)=\frac{\partial^2}{\partial x^2}q(x,t)+2q^2(x,t)q^*(-x,t). \quad (36)$$

U holda tenglamalar yechimini $q(x,t)$ orqali ifodalash mumkin: $q_{\pm j}(x,t)=\sqrt{\frac{2}{\beta_{\pm j}}}q(x,t)$ va bu yechim quyidagi chegaraviy shartlarni yig‘indi qoidasi bajarilganda qanotlantiradi:

$$\frac{\alpha_{\pm j}}{\alpha_1}=\sqrt{\frac{\beta_{\pm j}}{\beta_1}},\quad \frac{1}{\beta_{-1}}+\frac{1}{\beta_{-2}}+\frac{1}{\beta_{-3}}=\frac{1}{\beta_1}+\frac{1}{\beta_2}+\frac{1}{\beta_3}. \quad (37)$$

Tugundagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiradigan NNSh tenglamasining bitta soliton yechimlaridan biri quyidagicha yozilishi mumkin:

$$q_{\pm j}(x,t)=-\sqrt{\frac{2}{\beta_{\pm j}}}\frac{4\eta e^{i\bar{\varphi}}e^{-4i\eta^2 t}e^{-2\eta x}}{1+e^{i(\varphi+\bar{\varphi})}e^{-4\eta x}}, \quad (38)$$



4-rasm. Quyidagi qiymatlar uchun NNSh tenglamasini sonli yechish orqali olingan metrik yulduz grafidagi soliton profili: ($\beta_{-1} = 0.65,\ \beta_1 = 0.79,\ \beta_{-2} = 2.7,\ \beta_2 = 2.09,\ \beta_{-3} = 3.06,\ \beta_3 = 2.87$). Boshlang‘ich shartlar b_{-1} va b_1 tarmoqlarida berilgan.

bu yerda $\varphi,\ \bar{\varphi}$ va η o‘zgarmas kattaliklar.

3-rasmda yig‘indi qoidasiga mos keladigan $\beta_{\pm j}$ qiymatlari uchun turli vaqt momentlarida $t = 0;\ 0{,}05; 0.1$ grafdagi NNSh tenglamasini sonli yechish natijasida olingan $\left|q_{\pm j}(x,t)\right|^2$ soliton yechimlarining profillari ko‘rsatilgan. Yuguruvchi solitonlarning ajoyib xususiyati ularning graf tugunidan aks etishsiz o‘tishidir. 4-rasmda yig‘indi qoidasiga mos kelmaydigan $\beta_{\pm j}$ qiymatlari uchun yuqoridagiga o‘xshash grafiklar ko‘rsatilgan. 3-rasmda ko‘rsatilgan solitonlardan farqli o‘laroq, bu grafik tugunda solitonlarning aks etishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, biz integrallanuvchanlik xususiyatiga ega grafning tarmoqlanish nuqtasi orqali solitonlarning aks ettirilmasdan o‘tishini ta’minladik, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ilgari bunday xususiyat nochiziqli Shredinger, sinus-Gordon tenglamasi va nochiziqli Dirak tenglamalari kabi graflardagi boshqa evolyutsion tenglamalar uchun ko‘rsatilgan.

Ushbu dissertatsiya ishida ko‘rib chiqilgan yana bir muammo NNSh orqali metrik graflarda tasvirlangan tarmoqlangan optik tolalarda PT-simmetrik solitonlarni generatsiya qilish muammosidir. Xususan, generatsiya qilingan solitonlar soni uchun quyidagi formula olingan:

$$F_{\pm j} = \sqrt{\frac{\beta_{\pm j}}{2}} \int_{b_{\pm j}} \left|q_{\pm j}(x,0)\right| dx = \frac{ab}{2},$$

$$N = 6\left\langle \frac{1}{2} + \frac{ab}{2\pi} \right\rangle.$$

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi diskret nolokal nochiziqli Shredinger (DNNSh) tenglamasi orqali tasvirlangan tarmoqlangan PT-simmetrik diskret strukturalar modelini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Bunday masalani ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan eng oddiy graf bitta tugunga ulangan oltita diskret tarmoqlar, bunday graf yulduz grafi deb ataladi. Bu oltita taqmoqqa ega bo‘lgan tarmoqlangan struktura bir o‘lchovli panjaradir. Grafdagi alohida panjara tugunlari $(\pm j, n)$ shaklida ko‘rsatilgan, bu yerda $j = 1{,}2{,}3$ taqmoqning tartib raqami, n esa har bir tarmoqdagi panjara tuguniga mos keladi. Chap $(-j)$ tarmoqlar uchun $n \in b_{-j} = \{0, -1, -2, \dots\}$, bu yerda $(-j, 0)$ tarmoqlanish nuqtasini bildiradi. O'ng (j) taqmoqlar uchun $n \in b_j = \{1{,}2{,}3, \dots\}$, bu yerda $(j, 1)$ tarmoqlanish nuqtasiga eng yaqin nuqtalarni bildiradi.

Bu yerda yulduz grafining har bir tarmog‘i uchun quyidagi DNNSh tenglamasini ko‘rib chiqamiz:

$$i\frac{dQ_{\pm j,n}}{dt} = Q_{\pm j,n+1} - 2Q_{\pm j,n} + Q_{\pm j,n-1} + \sqrt{\beta_j \beta_{-j}} Q_{\pm j,n} Q^*_{\mp j,-n}(Q_{\pm j,n+1} + Q_{\pm j,n-1}), \quad (39)$$

bu yerda $\beta_{\pm j}$ – nochiziqlilik koeffitsiyentlari va $(\pm j, n) \notin \{(-j, 0), (j, 1)\}$. Tugundagi chegaraviy shartlarni yozamiz:

$$Q_{-j,1} = \alpha_1^{(-j)} Q_{1,1} + \alpha_2^{(-j)} Q_{2,1} + \alpha_3^{(-j)} Q_{3,1}, \quad (40)$$
$$Q_{j,0} = \alpha_{-1}^{(j)} Q_{-1,0} + \alpha_{-2}^{(j)} Q_{-2,0} + \alpha_{-3}^{(j)} Q_{-3,0}$$

mos keladigan koeffitsiyentlar, $\alpha_{\pm j}^{(\pm j)}$.

5-rasmda ko‘rsatilgan yulduz shaklidagi grafdagi DNNSh tenglamasining soliton yechimi:

$$Q_{\pm j,n}(t) = \frac{1}{\sqrt{\beta_{\pm j}}} Q_n(t), \quad (41)$$

bu yerda $Q_n(t)$ – diskret chiziqda (ya’ni cheksiz zanjirda) DNNSh tenglamasining soliton yechimi. DNNSh tenglamasining soliton yechimi nochiziqlilik koeffitsiyentlari $\beta_{\pm j}$ quyidagi shartni qanoatlantirsa o‘rinli hisoblanadi:

$$\frac{1}{\beta_{-1}} + \frac{1}{\beta_{-2}} + \frac{1}{\beta_{-3}} = \frac{1}{\beta_1} + \frac{1}{\beta_2} + \frac{1}{\beta_3}. \quad (42)$$



5-rasm. Metrik yulduz grafi uchun (41) tenglama bilan berilgan DNNSh tenglamasi yechimining ikki oʻlchovli kontur grafigi. Nochiziqlilik koeffitsiyentlarining qiymatlari quyidagicha tanlangan: $\beta_{-1} = 1,\ \beta_1 = 1.15,$ $\beta_{-2} = 2.19,\ \beta_2 = 1.92,\ \beta_{-3} = 2.42,\ \beta_3 = 2.09.$

(41) tenglama bilan berilgan yechim (39) tenglamaning soliton yechimi boʻlib, (42) tenglamada berilgan shart oʻrinli boʻlsa, tugundagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi. Boshqacha qilib aytganda, masalaning aniq soliton yechimi faqat (42) tenglamadagi yigʻindi qoidasini qanoatlantiradigan $\beta_{\pm j}$ qiymatlari uchun yozilishi mumkin. Umumiy holatda yigʻindi qoidasi bajarilmasa, (39) tenglamani sonli usullar bilan yechish kerak boʻladi. 5-rasmda (39) tenglamaning (nafas oluvchi) soliton yechimining kontur grafigi keltirilgan. Grafik yigʻindi qoidasi bajarilgan holda, ya'ni $\beta_{-1} = 1,\ \beta_1 = 1.15,\quad \beta_{-2} = 2.19,\ \beta_2 = 1.92,\quad \beta_{-3} = 2.42,\quad \beta_3 = 2.09$ qiymatlar uchun (41) analitik formula boʻyicha olingan.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya ishi metrik graflarda solitonlarning transporti va ularning generatsiyasi muammosini hal qilishga bagʻishlangan. Dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar keltirilgan:

1) Optik tolali tarmoqlarda generatsiya qilingan optik solitonlar soni impulsning boshlangʻich profiliga bogʻliq;

2) Graflardagi PT-simmetrik nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasi integrallanuvchanlik xossasiga ega va soliton yechimlari olingan;

3) Integrallashuvchanlik holatida PT-simmetrik solitonlarning graf tugunlari orqali aks etishsiz oʻtadi;

4) Graflardagi PT-simmetrik diskret nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasi integralluvchanlik xossasiga ega va soliton yechimlari olingan;

5) Graflarda nolokal nochiziqli Shredinger tenglamasi bilan tasvirlangan PT-simmetrik solitonlar solitonlarini generatsiyasi uchun ikkita optik impulsning mavjudligi zarur.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ И ПРИКЛАДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НАЦИОНАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО УНИВЕРСИТЕТА «ТИИИМСХ»

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

АКРАМОВ МАШРАБ ЭРГАШАЛИ УГЛИ

МОДЕЛИРОВАНИЕ ГЕНЕРАЦИИ И УПРАВЛЯЕМОЙ ДИНАМИКИ СОЛИТОНОВ В СЕТЯХ ОПТИЧЕСКИХ ВОЛНОВОДОВ

01.04.02 – Теоретическая физика
05.01.07 – Математическое моделирование. Численные методы и комплекс программирования

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физикоьматематическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером № B2023.2.PhD/FM860.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, английский, русский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ifar.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Матрасулов Даврон Урунович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Ганжабой Болтаев** доктор физико-математических наук **Борис Маломед** доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «1» июля 2023 года в 16^{00} часов на заседании Научного совета DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 при институт Фундаментальных и прикладных исследований Национального исследовательского университета «ТИИИМСХ» (Адрес: 100000, г.Ташкент, улица Кори Ниязова 39, Тел.: +998 71 237-09-61; e-mail: info@ifar.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального исследовательского университета «ТИИИМСХ» за № __ (Адрес: 100000, г.Ташкент, ул. Кори Ниязов, дом 39. Тел.: (+998971) 237-19-36, Факс: (+998971) 237-09-75, e-mail: info@ifar.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _________ 2023 года.

(протокола реестра № 8 от «17» июня 2023 года.)

Б.Ж. Ахмедов
Председатель научного совета по присуждению учёной степени, доктор физико-математических наук, профессор.

Э.Х. Каримбаев
Учёный секретарь научного совета по присуждению ученой степени, PhD.

Б.М. Нарзиллоев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученой степени, доктор физико-математических наук, ведущий научный сотрудник.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность работы: Изучение нелинейных оптических явлений в материалах низкой размерности представляет собой актуальную как с фундаментальной, так и с практической точки зрения задачу. Фундаментальный аспект проблемы заключается в том, что уменьшение размерности и пространственный конфайнмент в таких системах накладывают существенные ограничения на поведение нелинейных оптических волн, что иногда обуславливает возникновения новых эффектов. С практической же точки зрения, топология разветвления сетей, а также геометрия границ могут стать эффективным инструментом для манипулирования поведением волн и частиц, что позволяет решать проблему о моделировании и дизайне функциональных материалов и оптоэлектронных устройств с заранее заданными свойствами. В данной диссертационной работе решено ряд задач, непосредственно связанных с проблемой управляемого транспорта солитонов, включая PT-симметричных солитонов, а также с задачей моделирования оптоэлектронных материалов улучшенными функциональными свойствами.

В настоящее время в мире изучение линейных волн, описываемых нелинейными волновыми уравнениями, и исследование численного решения нелинейных волновых уравнений являются одной из актуальных проблем современной оптики и квантовой физики. При этом решение типа нелинейного уравнения Шредингера, заданного на простых графах, и моделирование транспорта солитонов в разветвленных системах играют важную роль в оптике, нанофизике и теоретической физике. В связи с этим нахождение солитонных решений нелинейных волновых уравнений на графах и моделирование динамики солитонов, а также математическое моделирование процессов эффективной передачи информации, создание эффективных алгоритмов численного вычисления и программного обеспечения представляют собой важный этап современных исследований.

